

Xorijiy matbuotda nashr ishlari

Institutimizda “Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrası tashabbusi bilan 2019 yil 4-5 yanvar kunlari 6 - ma’ruzalar zalida Krakov texnologiya universiteti tadqiqotchisi t.f.d. Tursunov Obidjon Boboqulovichning “MASTER CLASS in Scientific Writing & Publishing (Web of Science and Scopus Indexed Journals) - International Experience” mavzusidagi seminari tashkil etildi.

Seminarni tashkil etishdan maqsad, institutimiz reytingini jahon miqyosida faoliyat yuritayotgan yetakchi oliy ta’lim muassasalari qatoriga qo’shish va olimlarimiz tomonidan yaratilayotgan ilmiy maqolalarni Web of Science va Scopus Indexed Journallarda nashr ettirishdan iborat.

Seminarining birinchi kunida professor O.B.Tursunov tomonidan Web of Science va Scopus Indexed Journallarda maqola chop ettirishga qo’yiladigan talablar va ularni bajarish uchun maxsus ko’rsatmalar berildi, seminarining ikkinchi kuni esa Web of Science va Scopus Indexed Journallarda maqolalarni chop ettirish mumkin bo’lgan jurnallar, ulardagi redaktorlarning asosiy talablari va e’tibor berish kerak bo’lgan masalalar to’g’risida batafsil ma’lumotlar berildi.

Seminarda 50 ga yaqin professor-o’qituvchilar ishtirok etdilar, ular seminar davomida o’zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar. Seminar so’ngida qatnashchilarga sertifikatlar taqdim etildi.



Seminar koordinatori PhD D.B.Qodirov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov